



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATION G'oyalar



**AQLIY RIVOJLANISHDA MUAMMOSI BO'LGAN O'QUVCHILARNI  
SAVODGA O'RGATISHNING ILMIY ADABIYOTLARDA YORITILISHI.**

**Abdujabborova Mavjuda Baxtiyor qizi**

*Jizzax davlat pedagogika universiteti*

*Pedagogika-psixologiya va inklyuziv ta'lif fakulteti*

*Maxsus pedagogika kafedrasi stajyor o'qituvchisi*

**Otaboyeva Nafisa Muhiddin qizi**

*Maxsus pedagogika kafedrasi Surdopedagogika yo'nalishi*

*2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *O'zbekistonda nogironlik tibbiy va xayriya modellarining birlashuvidan kelib chiqqan holda belgilanadi: "nogiron odam – o'zining jismoniy yoki aqliy zaifliklari oqibatida ishlashi cheklanganligi tufayli ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj insondir". O'zbekistonda yosh avlodni sog'lom, baquvvat, ruhiy va jismoniy tomondan barkamol inson qilib tarbiyalash muhim vazifa bo'lib hisoblanadi. Mustaqillik sharofati bilan jismoniy tarbiya va sportga yanada e'tibor kuchaytirilmoqda. Ushbu maqolada, aqliy rivojlanishda muammosi bo'lgan o'quvchilarni savodga o'rgatishning lingvistik asoslari haqida fikr va mulohazalar yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Rivojlanish, bolalar, aqliy nuqson, lingvistik, savod, o'rgatish, asos, ijtimoiy himoya.*

Jahon ta'liming muhim vazifalaridan biri – funksional savodli o'quvchi shaxsini shakllantirish bo'lib, bu o'quvchi shaxsini jamiyatga madaniy qo'shilishining muhim shartidir. Funksional savodxonlikning tarkibiy qismi malakali o'qish bo'lib, u o'qish taktika va strategiyalarini ongli qo'llash asosida kognitiv-kommunikativ vazifalar majmuasini hal qilish imkonini beradi. Metapredmet ko'nikma va malakalarni shakllantirish vositasi sifatida namoyon bo'luvchi o'qish asosida matnli axborotni to'liq qayta ishlamay turib, o'quvchi ijtimoiy-madaniy makonni o'zlashtira olmaydi. Shu munosabat bilan, bizningcha, ushbu vazifani hal qilishning muhim aspekti nafaqat nutqni tushunish va uni grafik ifodalashdan iborat bo'lgan nutqiy faoliyatning retseptiv ko'rinishi sifatida o'qishga o'rgatish, balki tushunish, o'qish maqsadini tahlil qilish va tegishli o'qish strategiyasini tanlash bilan bog'liq bo'lgan mazmuniy o'qishga o'rgatishdan ham iborat. A.Gertsen savodga o'rgatish ko'nikmasini o'zlashtirmay bilmay turib, inson baxtli bo'la olmaydi. O'qish san'atidan mahrum inson tarbiyasiz, ma'nан savodsizdir. O'qishsiz haqiqiy ta'lim ham yo'q, did ham, uslub ham, har tomonlama keng tushuncha ham yo'q va bo'lishi mumkin ham emas, deb ta'kidlagan edi. Jahonda ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari o'quvchilarida savodga o'rgatish ko'nikmasini shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirishga oid olib borilgan tadqiqotlar yuzasidan qator ilmiy natijalar olingan. Jumladan, aqli zaif o'quvchilarga fonema tushunchasini tabiiy ravishda o'qitish bo'yicha ishonchli natijalar olingan hamda





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



ta'lism jarayonida aqli zaif o'quvchilarida savodga o'rgatish ko'nikmasini shakllantirishdagi qiyinchiliklarni kamaytirish, abilitasiya (erta aralashuv) modellari tatlbiq etilgan (University of California at Riverside), o'qish qobiliyati eng muhim ustuvor yo'naliш ekanligi, boshqa sohalarni o'r ganish va yutuqlarga erishish uchun muhim bo'lgan mahorat sifatida qabul qilinishi asosida aqli zaif o'quvchilarning o'ziga xos imkoniyatlarini hisobga olib, korreksion ta'lism jarayonida ularning o'qish qobiliyatini rivojlantirish texnologiyalari hamda baholash tizimi optimallashtirilgan (University of Minnesota, National Center on Educational Outcomes), aqli zaif o'quvchilarda savodga o'rgatish ko'nikmasini shakllantirish nafaqat talaffuz masalasi, balki intellektual muammo ekanligi, o'quvchilarning aqliy taraqqiyoti va tushunchalarini rivojlantirish texnologiyasi individual ta'lism traektoriyasi asosida ishlab chiqilgan (The International Reading Association on behalf of Unesco: The teaching of reading), alohida ta'lism ehtiyojlari bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qishga o'rgatishda CORI (Concept Oriented Reading Instruction) instruksiysi ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu instruksiya asosida o'quvchilarning ichki motivasiyasiga ta'sir qilgan holda o'qishga o'rgatish texnologiyalari amaliyotga joriy etilgan ([Griffith University](#), University of Wollongong Australia), Savodxonlikka o'rgatish omillari boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qishga o'rgatishda ham ta'sir ko'rsatishi, o'qishga o'rgatishni bosqichma-bosqich amalga oshirishni ko'zda tutadi, ta'lism jarayoni har bir o'quvchiga individual yondashuvga yo'naltirilgan, savodga o'rgatish ko'nikmasini shakllantirish jarayonida aloqa o'rnatish (istiqbol dastur va rejalar) modellariga oid texnologiyalardan amalda foydalaniylmoqda (University of Hull, British Dyslexia Association).

**Xulosa qilib aytganda,** Oligofrenopedagogika — aqli zaif bolalarni o'qitish, tarbiyalash, korreksiyalash (tuzatish), ijtimoiy xayotga jalg etish masalalarini o'rganuvchi defektologiya tarmog'i. Oligofrenopedagogikaning asosiy vazifasi aqli zaif bolalarning rivojlanishida korreksion tarbiyaning mohiyatini ochib berish, ulardagi nuqsonning rivojlanishini va nuqsonning o'zini bartaraf etish yo'llarini, maxsus mакtab va mакtabgacha tarbiya muassasalarida aqli zaif bolalar uchun maxsus ta'lism-tarbiya va korreksion rivojlantiruvchi ish va metodlarni ishlab chiqish hamda takomillashtirishdan iborat. Oligofrenopedagogika umumiy va maxsus pedagogika, psixologiya, anatomiya, fiziologiya, genetika, nevropatologiya, pediatriya, oligofreniya klinikasi yutuklariga asoslanadi.

### Foydalaniлgan adabiyotlar

1. "Alohida yordamga muhtoj bolalarni tarbiyalashda oila va mакtab hamkorligi" Ilmiy - metodik to'plam, 2013y.
2. "Praktikum po psixologii umstvenno otstalogo rebyonka". 1985y.
3. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. Uch jildlik, saylanma. Xalq merosi. 1993y.
4. D.A.Nurkeldiyeva, Ya.E.Chicherina "Ilk, mакtabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarni psixologik-pedagogik, logopedik tekshirish" 2014y.





## **TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar**



5. D.A.Nurkeldiyeva, Z.I.Islambekova "Rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar diagnostikasi", 2013y.

